BOSHLANG'ICH SIN FLARDA INKLYUZIV TA'LIMNI TASHKIL ETISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Qoryog'diyeva Mohinur Oybek qizi

Shahrisabz davlat pedogogika instituti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi

Annotatsiya:inklyuziv ta'lim - bu barcha o'quvchilar, shu jumladan, maxsus ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ta'lim jarayonini muvofiqlashtirishni nazarda tutadi. Maqolada zamonaviy pedagogik texnologiyalar, masalan, interaktiv darslar, multimediya vositalari, o'yin asosidagi o'qitish va boshqa innovatsion usullar orqali inklyuziv ta'lim muhitini yaratishning ahamiyati ta'kidlanadi.Zamonaviy pedagogik texnologiyalar yordamida o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish, ularning o'z-o'zini ifoda etishiga yordam berish va ta'lim jarayonida faol ishtirok etishlarini ta'minlash mumkin.

Kalit so'zlar:inklyuziv ta'lim,boshlang'ich sinflar,innovatsion usullar,pedagogik texnologiyalar,interaktiv darslar, multimediya vositalari, individual yondashuv, ta'lim jarayoni, ijtimoiy ko'nikmalar, strategiyalar.

Аннотация: инклюзивное образование подразумевает координацию образовательного процесса для всех учащихся, включая детей с особыми потребностями. В статье подчеркивается важность создания инклюзивной среды обучения с использованием современных педагогических технологий, таких как интерактивные уроки, мультимедийные средства, игровое обучение и другие инновационные методы. Современные педагогические технологии позволяют повысить мотивацию учащихся, помочь им проявить себя, обеспечить их активное участие в образовательном процессе.

Ключевые слова: инклюзивное образование, начальные классы, инновационные методы, педагогические технологии, интерактивные уроки, мультимедийные средства, индивидуальный подход, образовательный процесс, социальные навыки, стратегии.

Abstract: Inclusive education is the process of coordinating the educational process for all students, including children with special needs. The article emphasizes the importance of creating an inclusive educational environment through modern pedagogical technologies, such as interactive lessons, multimedia tools, game-based learning and other innovative methods. Modern pedagogical technologies can increase students' motivation, help them express themselves, and ensure their active participation in the educational process.

Key words: inclusive education, primary grades, innovative methods, pedagogical technologies, interactive lessons, multimedia tools, individual approach, educational process, social skills, strategies.

Kirish

ISSN 3030-3907

Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni sog‘lom tengdoshlari qatorida o‘qitish masalasi bugungi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanmoqda. Ma’lumki imkoniyati cheklaangan bolalar maxsus o‘quv reja, o‘quv dasturlari asosida maktab ta’limini egallaydilar. Ular uchun ta’lim maxsus korreksion yo‘naltirilgan pedagogik jarayon asosida tashkil etilib, defektologik ma’lumotga ega mutaxassislar tomonidan olib boriladi. O‘tgan asr maxsus ta’limidan ko‘zlangan maqsad va vazifalartahlil etilganda o‘quvchilarning umumiy va nutqiy rivojlanishini ta’minlagan holda umumta’lim fanlarini o‘qitish va keyingi bosqich ta’limga tayyorlash kabilarni sharhlash mumkin. Bugungi kun maxsus ta’limi esa, raqobatbardosh mutaxassisni inklyuziv ta’lim jarayonida tayyorlashga ta’sir qiladi. Mazkur vazifa o‘z mazmuni va ko‘lamiga ko‘ra davlat va jamiyatning ijtimoiy buyurtmasidir. Bundan tashqari barcha bolalarning sifatli ta’lim olish huquqini ta’minlashda o‘qituvchilar faoliyatiga zamonaviy talablar qo‘yilmoqda. Masalan, sinfda turli toifadagi bolalar bilan bir paytning o‘zida mos yondashuvlarni tashkil eta olish va kutilgan natijani qo‘lga kiritishni misol qilishimiz mumkin. Mazkur masala nogiron hamda sog‘lom rivojlanayotgan bolalarga matematikani o‘rgatishdagi umumiylik va farqli jihatlarni aniqlashni ko‘ndalang qo‘yadi. Bu yo‘nalishda o‘rganish ishlarini olib borish, manbalarni tahlil qilish asosida ilmiy xulosalarni asoslash mumkin. Jumladan, inson uchun matematikaning zarurat ekanligini V.M.Tixomirov alohida ta’kidlaydi. Olimning fikricha: “Insoniyatning ma’naviy dunyosini shakllantirishda bu fan tarixini, uning asoschilarini hamda fanga hissasini bilish foydali”. Adabiyotlarda matematika o‘qitish bilan bog‘liq konkret vazifalar qatorida matematik rivojlanish asosida o‘quvchilarda bir butun “olam manzarasi”ni shakllantirish bilan bog‘liq keng masala ham ko‘rib chiqilgan. Bolalikning aynan maktabgacha va maktab davrida turlituman faoliyatda bolada borliqning predmetli olam, kishilik olami, tabiat kabi asosiy sohalari bilan aloqa shakllana boshlaydi, olamni anglash uchun zamin yaratiladi, bola o‘zini-o‘zi dastlab shu davrda anglay boshlaydi, ya’ni, bir so‘z bilan aytganda, “olam manzarasi” shakllanadi. Olam manzarasi tushunchasini keng ma’noda – ongda aks etgan va ongda yaratilgan mental olam obrazi sifatida olib qaraymiz. Inklyuziv ta’lim dastlab oliy ta’lim negizida I va II guruh nogironlari uchun ikki foizli kvota ajratilib, joriy qilingan.Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari yoshidagi jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsonlari bo‘lgan va uzoq vaqt davolanishga muhtoj bolalar davlat ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalarida, inklyuziv ta’lim uy sharoitlarida yakka individual tartibda yoki statsionar sharoitda tashkil etish tartibi belgilandi.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son Qaroriga muvofiq “O`zbekiston Respublikasining 2020-2025-yillarda Xalq ta’limi tizimida inklyuziv ta’limni rivojlantirish Konsepsiyasi” tasdiqlandi.Ushbu Konsepsiya barcha darajadagi nogironligi bor insonlarning

ISSN 3030-3907

ta’lim olish huquqini tan oladigan, hech qanday kamsitishlarsiz va teng imkoniyatlar asosida uzluksiz inklyuziv ta’lim olishini ta’minlash majburiyatini yuklatadi. Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot Strategiyasining 66 hamda 70-maqsadida nogironligi bo‘lgan shaxslarning jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga jalb qilinishi va faol ishtirokini ta’minlovchi inklyuziv ta’lim va ishga joylashtirish tizimini takomillashtirish, yoshlar uchun ochiq va sifatli ta’limni ta’minlash, ta’limning barcha bosqichlarida yoshlarning mukammal ta’lim olishini ta’minlash, hududlarda inklyuziv ta’lim rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratish borasida aniq vazifalar belgilab berilganligi mamlakatimizda inklyuziv ta’lim dolzarb masala sifatida ko‘tarilganligining dalilidir.Hozirgi vaqtda respublikamiz ta’lim muassasalarida inklyuziv ta’lim jadal yo‘lga qo‘yilayotganligi bilan birgalikda alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni o‘qitish uchun inklyuziv ta’lim tizimini tashkil etish, ularning ta’lim olishga bo‘lgan teng huquqlarini ta’minlash borasida birqancha kamchiliklar mavjud. Masalan, ularga misol tariqasida umumta’lim muassasalarida alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga inklyuziv ta’lim berish metodikasi ishlab chiqilmaganligi, alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga inklyuziv ta’lim berishning sifati va samaradorligini aniqlash mezonlari ishlab chiqilmaganligi, alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar ta’lim oladigan ta’lim muassasalari zarur maxsus o‘quv adabiyotlari va metodik-qo‘llanmalar bilan yetarli darajada ta’minlanmaganligini keltirish mumkin.Inklyuziv ta’lim tizimini rivojlantirish, yuqoridagi kamchiliklarni bartaraf qilish yuzasidan ta’lim jarayonini shakllantirishda innovatsion yondoshuvdan foydalanish ijobiy samara beradi. Innovatsion yondashuv mavjud ijtimoiy muhitga innovatsion o‘zgarishlar kiritishni rag‘batlantiruvchi o‘quv faoliyati jarayoni va uning natijasi hisoblanadi.

Inklyuziv ta'limni boshqarishda zamonaviy innovatsion yondashuvlarni qo'llash masalasi ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan. Baxromova G.D.ning "Inklyuziv ta'limni tashkil etishda innovatsion yondashuvlar: muammo va yechimlar" nomli maqolasida hozirgi kunda inklyuziv ta'lim muhitini yaratishga yordam beradigan zamonaviy tendentsiyalar, texnologiyalar va innovatsion yondashuvlar haqida umumiy ma'lumot berilgan. Shuningdek, S. Achilovaning "Inklyuziv ta'lim: nazariya va metodika" nomli darsligida imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta'lim sharoitida o‘qitishning mohiyati, inklyuziv ta'limni tashkil etishning huquqiy-me'yoriy asoslari hamda pedagogik-psixologik aspektlari yoritib berilgan. O'zbekiston Respublikasida inklyuziv ta'limni rivojlantirish bo'yicha qator huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Jumladan, 2020-yil 13-oktabrda qabul qilingan PQ-4860-sonli qaror bilan 2020-2025 yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi va uni amalga oshirish bo'yicha "yo'l xaritasi" tasdiqlandi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2022-2023-o'quv yilida inklyuziv ta'lim joriy etilgan umumta'lim maktablari soni 195 taga yetib,

ISSN 3030-3907

ularda 504 nafar imkoniyati cheklangan bolalar inklyuziv ta'limga qamrab olingan. Inklyuziv ta'limning vazifasi bolalarning qobiliyati va holatidan qat'iy nazar, ularga sifatli ta'lim berishdan iboratdir. Shu bilan birgalikda, imkoniyati cheklangan bolalar ijtimoiy rivojlanishga ega bo'lishlari uchun oilada yashashlari va o'z tengdoshlari bilan oddiy maktabda ta'lim-tarbiya olishlarini ta'minlash zarurligini nazarda tutadi.

- Inklyuziv ta'lim imkoniyati cheklangan bolalarga quyidagi imkoniyatlarni beradi:
- o'z imkoniyatlarini o'zlari uchun kashf etadilar;
- o'zlarini barcha bilan bir xil hisoblay boshlaydilar;
- ta'lim olishga bo'lgan qiziqishi ortadi;
- o'zlarida mustaqil harakatlanishga bo'lgan ishonch ortadi;
- dunyoqarashi kengayib, hayotiy tajribasi ortadi.

Inklyuziv ta'lim — bu barcha o'quvchilarning, shu jumladan, maxsus ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ta'lim jarayoniga to'liq va faol jalb etilishini ta'minlaydigan yondashuvdir. Bu yondashuvning asosiy maqsadi har bir o'quvchining imkoniyatlarini maksimal darajada ochish, ularning ijtimoiy integratsiyasini ta'minlash va ta'lim sifatini oshirishdir.Interaktiv usullar o'quvchilarni dars jarayonida faol ishtirok etishga undaydi. Guruhli va juftlikda ishlash, muammoli vazifalar yechish orqali o'quvchilar bir-biridan o'rganadilar va o'z fikrlarini ifoda etish imkoniyatiga ega bo'ladilar.Video, audio va grafik materiallardan foydalanish ta'lim jarayonini yanada qiziqarli va tushunarli qiladi. Maxsus ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilar uchun vizual materiallar yordamida ma'lumotlarni yaxshiroq qabul qilish imkoniyati yaratiladi.O'yinlar orqali o'qitish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilish mumkin. O'yinlar orqali bolalar o'zaro muloqot qilish, jamoaviy ish olib borish va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantiradilar.Har bir o'quvchining o'ziga xos ehtiyojlari va qobiliyatlari bor. O'qituvchilar individual yondashuv orqali har bir bolaga mos ta'lim strategiyalarini ishlab chiqishlari zarur.Zamonaviy texnologiyalar yordamida onlayn ta'lim platformalari orqali o'quvchilar uchun qo'shimcha resurslar taqdim etish mumkin. Bu, ayniqsa, maxsus ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun foydalidir.O'qituvchilar uchun inklyuziv ta'lim va zamonaviy pedagogik texnologiyalar bo'yicha treninglar tashkil etilishi kerak.Ota-onalar bilan muntazam muloqot qilib, ularning fikrlarini inobatga olish va oilaviy muhitda bolalarga yordam berish bo'yicha maslahatlar berish zarur.Sinfda inklyuziv muhitni yaratish, barcha o'quvchilarning fikrlarini hurmat qilish va ularni qo'llab-quvvatlash juda muhimdir.Ta'lim jarayonida o'quvchilarning muvaffaqiyatlarini doimiy ravishda monitoring qilish va baholash tizimini joriy etish zarur.Boshlang'ich sinflarda inklyuziv ta'limni tashkil etishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash,

ISSN 3030-3907

o'qituvchilarga har bir o'quvchining ehtiyojlarini inobatga olish imkonini beradi. Bu yondashuv nafaqat ta'lim sifatini oshiradi, balki bolalarning ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishga ham yordam beradi. Inklyuziv ta'lim — bu kelajak avlodni tarbiyalashda muhim omil bo'lib, barcha bolalarning teng imkoniyatlarga ega bo'lishini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOT VA HAVOLALAR

1. Akmalxon og M. S. et al. 2022-2026-Yillarga Mo ‘Ljallangan Yangi O ‘Zbekistonning
2. Taraqqiyot Strategiyasining Amalga Oshirilish Holati: Yutuqlar Va Vazifalar //Journal of
3. Innovation in Education and Social Research. – 2024. – T. 2. – No. 2. – C. 6-9.
4. Qonuni O. R. Ta’lim to ‘g ‘risida //O ‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi., O’RQ-637-
5. son, Toshkent sh. – 2020. – T. 23.
6. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi Toshkent. “Yuridik adabiyotlar publish”.
7. 2023
8. Shohbozbek E. RENEWAL OF THE SOCIAL SPHERE AND STABLE SOCIETY
9. SYSTEM IN THE PROCESS OF REFORMS //American Journal Of Social Sciences
10. And Humanity Research. – 2024. – T. 4. – No. 09. – C. 16-20.
11. Baxromova G. D. Q. Eshitishida muammolari bo’lgan o’quvchilarga o’nli kasrlarni
12. o’qitish texnologiyasi //Science and Education. – 2022. – T. 3. – No. 5. – C. 772-777.
13. Shohbozbek E. RENEWAL OF THE SOCIAL SPHERE AND STABLE SOCIETY SYSTEM IN THE PROCESS OF REFORMS //American Journal Of Social Sciences
14. And Humanity Research. – 2024. – T. 4. – No. 09. – C. 16-20..
15. https://cyberleninka.ru/article/n/inklyuziv-ta-limni-voshqarishda-zamonaviy-innovatsion-yondashuvlar/viewer

ISSN 3030-3907